

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD
03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ISMAILOV ALISHER ULUG‘BEKOVICH

**O‘QUVCHILAR SHAXSIY-KASBIY TAYYORGARLIGINI
RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI
(Ichki ishlar vazirligi akademik litsey misolida)**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

Ismailov Alisher Ulug‘bekovich

О‘quvchilar shaxsiy-kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari (Ichki ishlar vazirligi akademik litsey misolida).....3

Исмаилов Алишер Улугбекович

Психологические особенности развития личностно-профессиональной подготовки учащихся (на примере академического лицея при Министерстве внутренних дел).....23

Ismailov Alisher Ulugbekovich

Psychological features of the development of personal and professional training of pupils (Based on the example of the Academic Lyceum of the Ministry of Internal Affairs).....45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works49

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD
03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ISMAILOV ALISHER ULUG‘BEKOVICH

**O‘QUVCHILAR SHAXSIY-KASBIY TAYYORGARLIGINI
RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI
(Ichki ishlar vazirligi akademik litseyi misolida)**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B.2024.2.PhD/P.941 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.psi-ik.uz) va «Ziyonet» axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Atabayeva Nargis Batirovna
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Begmatov Abdullajon Sirojiddinovich
falsafa fanlari doktori, professor

Elov Ziyodulla Sattarovich
psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Farg‘ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD03/30.12.2021.P.26.02 raqamli bir martalik Ilmiy kengashning 2025-yil «_____» kuni soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel: (+99871) 276-82-32; faks (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro‘yxatga olingan) (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel: (+99871) 276-82-32)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «___» _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil «___» _____ dagi ___ raqamli reyestr bayonnomasi).

F.A.Akramova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, psixologiya fanlari doktori (DSc),
professor

B.S.Abdullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, psixologiya fanlari doktori (DSc),
professor

Z.T.Nishanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
psixologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon sivilizatsiyasi rivojlanayotgan bir paytda shaxsni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, uni yuksak ma'naviy va axloqiy qadriyatlar tizimi bilan qurollantirish muhim vazifa hisoblanadi. YUNISEF ma'lumotlariga ko'ra, o'smirlar xulq-atvorida g'ayritabiiy xatti-harakatlarning ko'payishi, internetga qaramlik va boshqa huquqbuzarlik holatlarining 2-3 foizga oshgani kuzatilmoqda¹. Bu borada jahon amaliyotida ko'ra, sodir bo'layotgan iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishda shaxsiy-kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirish muammosini dolzarb ahamiyatga ega masala sifatida qarashga sabab bo'lmoqda va mazkur muammoni ilmiy tadqiq etish dolzarb masalalardan bo'lib qolmoqda.

Jahon oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-amaliy markazlarida o'quvchilar shaxsiy-kasbiy tayyorgarligining psixologik xususiyatlarini rivojlantirishga oid ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada akademik litsey o'quvchilarining shaxsiy-kasbiy tayyorgarligi namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik sabablari va motivlarini aniqlash, ushbu shaxsiy-kasbiy tayyorgarligini rivojlanishiga qaratilgan integratsiyalashgan yangi psixologik xizmat dasturlarini joriy etishda ularning shaxsiy-kasbiy sifatlariga moyillikni oshiruvchi omillar ta'sirini kuchaytirishni ta'minlashga xizmat qiluvchi psixoprofilaktik-korreksion mexanizmlarni ishlab chiqish va takomillashtirish dolzarbligi yanada ortadi va alohida tadqiqot predmeti sifatida o'rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

Yangi O'zbekistonda so'nggi yillarda yoshlarning barkamol shaxs bo'lib shakllanishi bilan chambarchas bog'liq holda barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish davlat siyosatining muhim yo'nalishi etib belgilangan: "Yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish", "yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash"²ga ustuvor vazifa sifatida belgilanganligi, akademik litsey o'quvchilarida deviant xulq ko'rinishlari, shaxsiy-kasbiy sifatlar shakllanishining psixologik omillarini aniqlash, diagnostika qilish va korreksiyalash imkoniyatlarini ko'rsatish eng muhim vazifalardan hisoblanadi. Shu boisdan, mazkur mavzuni tadqiq etish ilmiy-nazariy, amaliy jihatdan ham muhim bo'lib, jamiyat ijtimoiy taraqqiyotida ahamiyat kasb etadi, mazkur muammoni ilmiy-amaliy tadqiq etish uchun zarur asos bo'la oladi.

O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 1-mayda O'RQ-837-son "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2021-yil 13-iyuldagi PF-6260-son "Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi", 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning

¹ Child Protection in Emergencies. – New York: Child Protection Working Group, UNICEF.

² Ўзбекистон Республикасининг "Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида"ги Қонуни ЎРҚ-406 / <http://lex.uz>

yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018-yil 27-iyuldagi PF-5466-son "Yoshlar – kelajagimiz" Davlat dasturi to'g'risida"gi Farmonlari, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol yetib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida", 2023-yil 20-yanvardagi PQ-10-son "Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi 472-son "Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarlikning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda faoliyatga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan keng ko'lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Inson shaxsiy-kasbiy yetuklik jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida kasbiy tafakkurni rivojlantirish, shaxsiy-kasbiy ma'naviyat masalalari Markaziy Osiyolik ulug' allomalar asarlarida o'z ifodasini topgan. Abu Nasr Farobiy, Abu Homid G'azzoliy, At-Termiziy, Al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Imom al-Buxoriy, Alisher Navoiy va boshqa mutafakkirlarning ilmiy, pedagogik va didaktik asarlarida insonni va mehnatni ulug'lash, adolat, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, xalqparvarlik, mardlik, saxiylik, kamtarlik, rostgo'ylik, do'stlik, olijanoblik, muruvvatlilik, odob-axloq, ilm kabi ma'rifat g'oyalar to'g'risida chuqur mulohazalar berilgan. Xususan, Kaykovusning "Qobusnoma" asarida buyuklik nasl-nasabining go'zalligi va olijanobligida emas, balki aql va kasbiy mahoratda ekanligi haqidagi fikrlari bayon etilgan.

O'zbek psixolog olimlaridan T.J.Ismoilov, Sh.D.Azizov, N.A.To'raqulov, M.A.Usmonov, E.M.Muxtorov, D.R.Raxmanova, R.I.Sunnatova, B.M.Umarov, G.V.Xrulnova va boshqalar tomonidan harbiylarda ijtimoiy sheriklik va refleksivlikning u yoki bu masalalari; A.Abduxalilov, A.Abdurasulov, A.Begmatov, E.Nurimbetova, I.Xaydarov, A.Nurillayev, B.Sirliyev, R.Dushanov, E.Nishanbayeva va boshqalar tomonidan ta'lim jarayonida huquqiy ong va huquqiy madaniyatning tutgan o'rni masalalari; S.B.Almardanova, U.B.Sadikova, O'M.Arziqulov va boshqalar bo'lajak mutaxassislarda kasbiy shakllanishi muammolari; E.Nurimbetov, I.Xaydarov, A.Nurillayev va boshqalarning tadqiqotlarida harbiylarni tayyorlashga qo'yiladigan talablar va ularning ijtimoiy-ma'naviy kamolotga oid ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan I.A.Zimnyaya, Ye.Demyankov, E.F.Zeer, A.K.Markova, V.A.Yakunin, N.V.Kuzmina, S.L.Rubinshteyn, V.E.Chudnovskiy va boshqalar ta'lim muassasalaridagi ta'lim-

tarbiya jarayoni, shaxs xususiyati, shaxs yo‘nalganligi va kasbiy ma‘naviyatini rivojlantirish masalalarini ilmiy tadqiq etishgan.

Xorijiy psixolog olimlaridan K. Lorens, L. Valente, K. Galvesiy, D. Yum, E. Kant, I. Fixte, F. Shelling, G. Gegel va boshqalarning falsafiy ta‘limotlarida shaxsiy-kasbiy ma‘naviy rivojlanishda kasbiy tafakkurning namoyon bo‘lishi, shaxs xususiyatlari va uning axloqiy motivatsiyasi, kasbiy tafakkurning mehnat faoliyati hamda ijtimoiy amaliyot natijasida yuzaga keladigan o‘ziga xos shakllari masalalari ilmiy tadqiq etilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat pedagogika universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, u mazkur oliy ta‘lim muassasasining “Psixologiya tarixini o‘rganish, umumiy psixologiya mazmunini o‘zlashtirish, shaxs psixologiyasini tasniflash, psixofiziologik tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish, tibbiy va kasb psixologiyasi qonuniyatlarini o‘rganish, ijtimoiy psixologiya, etnopsixologiya hamda yosh davrlari va pedagogik psixologiyaning konseptual asoslarini tadqiq qilish” nomli ustuvor yo‘nalish doirasida bajarilgan (2021-2024-yillar).

Tadqiqotning maqsadi akademik litsey o‘quvchilarining shaxsiy-kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishining psixologik xususiyatlarini ochib berish orqali amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

akademik litsey o‘quvchilarida shaxsiy-kasbiy tayyorgarlikning dinamik rivojlanishini ilmiy asoslash;

akademik litsey o‘quvchilarida shaxsiy-kasbiy tayyorgarlik darajasining jins farqlari shaxsiy xususiyatlari bilan bog‘liqligini aniqlash;

shaxsiy-kasbiy tayyorgarlikning rivojlanishiga ta‘sir etuvchi ob‘ektiv va sub‘ektiv omillarni o‘rganish;

o‘quvchilarda shaxsiy-kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirishda empatiya, ijtimoiy persepsiya hamda ijtimoiy mas‘uliyat tuyg‘ularini shakllantirishning ahamiyatini asoslash.

Tadqiqot ob‘ekti sifatida o‘quvchilarda shaxsiy-kasbiy sifatlarni namoyon bo‘lish jarayoni tanlangan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Andijon akademik litseyi, Qashqadaryo akademik litseyi, Toshkent akademik litseyi o‘quvchilaridan jami 220 nafar hamda 85 nafar ota-onalar, jami 305 nafar respondentlar tadqiqotga jalb etildi.

Tadqiqot predmetini akademik litsey o‘quvchilarining shaxsiy-kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishining psixologik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari: Tadqiqotda “O‘quvchilarining shaxsiy-kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish ustanovkalari” so‘rovnomasi, Dembo-Rubinshteynning “O‘z-o‘zini baholash metodikasi”, G.Ayzenkning “Temperament tipini o‘rganish metodikasi”, A.Ya.Varga va V.V.Stolinlarning “Ota-ona va farzand munosabatlari” testi, O.F.Potyomkinaning “Altruizm-egoizm”, “Vijdonlilik shkalasi” metodikalaridan foydalanilgan. Olingan natijalarning statistik ishonchliligini tasdiqlash uchun SPSS 27 dasturi orqali Styudentning t-mezone, K.Pirsonning r-korrelyatsiya koeffiesiyenti, Mann-Uitni U-mezone qo‘llash orqali tasdiqlangan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

akademik litsey o'quvchilarida shaxsiy-kasbiy tayyorgarlik davridagi avtonomiya holatlarining differensial namoyon bo'lishi, shuningdek, alter-Ego orqali shaxsning o'ziga bo'lgan emotsional munosabatining kuchayishi va bu munosabatlarning xulqqa proeksiyalanishi o'quvchilarda shaxsiy-kasbiy tayyorgarlikning dinamik rivojlanishiga asos yaratgani ilmiy jihatdan asoslab berildi;

akademik litsey o'quvchilarining shaxsiy-kasbiy tayyorgarligini namoyon bo'lishida jins farqlari mavjudligiga ko'ra, shaxsning o'ziga integral munosabatini hamkorlikka asoslangan muloqotga axloqiy burch hissi negizida integratsiyasi tufayli o'quvchilarning shaxsiy-kasbiy tayyorgarligini shaxs xususiyatlariga bog'liqligi dalillangan;

ota-onaning akademik litsey o'quvchilarini shaxsiy-kasbiy tayyorgarligi rivojlanishiga ta'siriga ko'ra, oilada bola bilan emotsional muloqot altruizmning bolani konstruktiv "Men"ida kuchli bog'liq namoyon bo'lishiga olib kelib shaxsning kasbiy tasavvurlarini o'zgartirganligi tufayli "simbioz" munosabatning ustuvor xarakterga ega ekanligi dalillangan;

akademik litsey o'quvchilarining shaxsiy-kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish uchun empatiya, ijtimoiy persepsiya, ijtimoiy mas'uliyat hislariga ustuvorlik berish orqali axloqiy tushunchalarni real xulq bilan identivligini ta'minlash muhimligiga ko'ra refleksiv xususiyatlarni rivojlantirish zarurligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

akademik litsey o'quvchilarda shaxsiy-kasbiy tayyorgarligini rivojlanishini tadqiq etish uchun ishonchli milliy mentalitetimizga moslashtirilgan psixodiagnostik metodikalar tizimlashtirilgan;

akademik litsey o'quvchilarda shaxsiy-kasbiy sifatlarini rivojlanishiga psixologik ta'sir etuvchi ob'ektiv (ota-ona, ta'lim-tarbiya) va sub'ektiv (o'z-o'zini baholash, vijdonlilik, xarakter) omillar aniqlangan;

akademik litsey o'quvchilarining shaxsiy-kasbiy tayyorgarligini rivojlanishiga qaratilgan korreksion dastur ishlab chiqilgan va uning samaradorligi aprobatsiya qilingan;

akademik litsey o'quvchilarining shaxsiy-kasbiy sifatleri psixokorreksiyasi bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilib, amaliyotga kiritilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda ishtirok etgan respondentlarning yetarlicha reprezentativligi; olingan empirik miqdoriy ko'rsatkichlarning matematik statistikaning ishonchli usullari yordamida tahlil qilinganligi; tekshiruvlarning bir necha aniq va rejali bosqichlarda hamda turli usullar yordamida amalga oshirilganligi; xulosa, taklif, tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi; tadqiqot maydoni sifatida turli hududlardagi muassasalar tanlangani; barcha oraliq natijalar ilmiy anjumanlar faoliyati doirasida yetakchi olimlar ishtirokida muhokama qilingani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati akademik litsey o'quvchilarida shaxsiy-kasbiy sifatlarining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar, shaxs tiplari, shaxs xususiyatlaridan vijdonlilik, o'z-o'ziga baho, ota-onaning farzandga munosabati bilan o'quvchilarda axloqiy sifatleri aloqadorligi asoslanilishi hamda o'smirlik davrida kognitiv, affektiv va

konativ sohalarga ta'sir ko'rsatuvchi psixologik mexanizmlarning mazmun-mohiyatini ochib berilganligi hamda olingan natijalar "Rivojlanish psixologiyasi va pedagogik psixologiya" fanini nazariy jihatdan boyitishga xizmat qilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan tajribaviy-empirik ma'lumotlardan akademik litsey o'quvchilarida shaxsiy-kasbiy sifatlarini yuzaga keltiruvchi shart-sharoitlarni bartaraf qilishdagi bilim va ko'nikmalarini shakllantirish, ahloqiy tarbiyasini yaxshilashga samara berishi bilan belgilanadi, shuningdek, "Rivojlanish psixologiyasi va pedagogik psixologiya", "Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya", "Psixologik trening asoslari", "Psixologik xizmat asoslari", "Umumiy psixologiya" fanlari bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tkazishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'quvchilar shaxsiy-kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari (Ichki ishlar vazirligi akademik litseyi misolida) bo'yicha dissertatsiya tadqiqoti natijalari asosida:

akademik litsey o'quvchilarida shaxsiy-kasbiy tayyorgarlik davridagi avtonomiyalarning differensial namoyon bo'lishiga ko'ra, alter-Ego shaxsni o'ziga emotsional munosabatini kuchayishi va uning xulqqa proyeksiyanishiga olib kelganligi tufayli o'quvchilarda shaxsiy-kasbiy tayyorgarlikning dinamik rivojlanishi asoslangan ilmiy xulosalar O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-iyundagi 358-son buyrug'iga asosan "Ontogenez psixologiyasi va differensial psixologiya" moduliga kiritilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universiteti Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 16-iyundagi PM-358a-son ma'lumotnomasi). Natijada, akademik litsey o'quvchilarining shaxsiy-kasbiy tayyorgarligini dinamik rivojlanishini asoslash imkoniyati yaratilgan;

akademik litsey o'quvchilarining shaxsiy-kasbiy tayyorgarligini namoyon bo'lishida jins farqlari mavjudligiga ko'ra, shaxsning o'ziga integral munosabatini hamkorlikka asoslangan muloqotga axloqiy burch hissi negizida integratsiyasi tufayli o'quvchilarning shaxsiy-kasbiy tayyorgarligini shaxs xususiyatlariga bog'liqligi dalillangan ilmiy xulosalar O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-iyundagi 358-son buyrug'iga asosan "Ontogenez psixologiyasi va differensial psixologiya" moduliga kiritilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universiteti Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 16-iyundagi PM-358a-son ma'lumotnomasi). Natijada, akademik litsey o'quvchilarida shaxsiy-kasbiy tayyorgarlikning jins farqlari shaxs xususiyatlariga bog'liqligi ochib berilgan;

ota-onaning akademik litsey o'quvchilarining shaxsiy va kasbiy tayyorgarligi rivojlanishiga ta'siri o'rganilar ekan, oiladagi bola bilan emotsional muloqot altruizmning boladagi konstruktiv "Men"ida kuchli bo'shliq namoyon bo'lishiga olib kelib, shaxsning kasbiy tasavvurlarini o'zgartirganligi tufayli "simbioz" munosabatning ustuvor xarakterga ega ekanligi dalillangan; ilmiy xulosalar O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-iyundagi 358-son buyrug'iga asosan "Ontogenez psixologiyasi va differensial psixologiya" moduliga kiritilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universiteti Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 16-iyundagi

PM-358a-son ma'lumotnomasi). Natijada, akademik litsey o'quvchilarining shaxsiy-kasbiy tayyorgarligini rivojlanishiga ta'sir etuvchi ob'ektiv va sub'ektiv omillarni tadqiq etishga erishilgan;

akademik litsey o'quvchilarining shaxsiy-kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish uchun empatiya, ijtimoiy persepsiya, ijtimoiy mas'uliyat hislariga ustuvorlik berish orqali axloqiy tushunchalarni real xulq bilan identivligini ta'minlash muhimligiga ko'ra refleksiv xususiyatlarni rivojlantirish zarurligi isbotlangan ilmiy xulosalar O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-iyundagi 358-son buyrug'iga asosan "Ontogenez psixologiyasi va differensial psixologiya" moduliga kiritilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universiteti Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 16-iyundagi PM-358a-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'quvchilarning shaxsiy-kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish dasturi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining sinovdan o'tkazilishi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Ilmiy tadqiqot yuzasidan jami 12 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekistonda Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola (shu jumladan, 3 ta ilmiy maqola respublika jurnallarida, 3 ta ilmiy maqola xorijiy jurnallarda) nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, umumiy xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 164 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprotatsiyasi va e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Ichki ishlar vazirligi akademik litsey o'quvchilarining shaxsiy-kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning psixologik tadqiqot predmeti sifatida**" deb nomlangan birinchi bobida Sharq mutafakkirlari asarlarida shaxsiy-kasbiy tayyorgarlik tushunchasining tavsifi, akademik litsey o'quvchilarining shaxsiy-kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish psixologik fenomen sifatida hamda akademik litsey o'quvchilarining shaxsiy-kasbiy tayyorgarlik davri psixologlar talqinida tahlil qilingan.

Shaxsning shaxsiy-kasbiy tayyorgarlikka erishish uchun shaxsning shaxsiy-kasbiy sifatlariga ega bo'lishi muammosi bugungi ijtimoiy munosabatlar taraqqiy etgan davrda dolzarb bo'lib bormoqda va ayniqsa hozirgi kundagi globallashuv jarayonlari tufayli yanada o'ziga xos ahamiyat kasb etmoqda.

Akademik litsey o'quvchilarningning shaxsiy va kasbiy sifatlariga nimalar kiradi va ularning o'xshashlik tomonini qiyoslab olaylik:

O'quvchining shaxsiy fazilatlarini deganda, axloqiy barkamollik, ya'ni saxovatpeshalik, mehribonlik, talabchanlik, ma'naviy poklik, qanoatlilik, rostgo'ylik, sadoqatlilik, pokizalik, ziyraklik, andishalilik, vazminlik, sabr-bardoshlilik, muloyimlik va boshqalarni tushunishimiz kerak.

O'quvchining kasbiy sifatlarini deganda esa, o'z sohasining puxta bilimdoni bo'lish, xunar sirlarini sodda usulda o'rgata olish, yuqori hayotiy tajribaga ega bo'lish, yosh mutaxassislariga o'rnak bo'lish, nutq madaniyati chiroyli, shaxsiy namuna bo'la olishlik va shu kabilardan iborat. Shuning uchun shaxsiy-kasbiy sifatlarining mohiyatini tahlil qilar ekanmiz, uni turli xil yondashuvlar doirasida tadqiq etilgan.

Shaxs shaxsiy-kasbiy yetuklik jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida kasbiy tafakkurni rivojlantirish, shaxsiy ma'naviyat masalalari Markaziy Osiyolik ulug' allomalar asarlarida ham o'z ifodasini topgan. Sharqning buyuk mutafakkirlari Al Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Maxmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarda insonni va mehnatni ulug'lash, adolat, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, xalqparvarlik, mardlik, saxiylik, kamtarlik, rostgo'ylik, do'stlik, olijanoblik, muruvvatlilik, odob-axloq, ilm kabi ma'rifat g'oyalar ilgari surilgan.

Dissertatsiyaning **“Ichki ishlar vazirligi akademik litsey o'quvchilarining shaxsiy-kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning empirik o'rganilishi”** deb nomlangan ikkinchi bobida o'rganilayotgan muammoning empirik tahliliga bag'ishlangan bo'lib, ushbu bobda tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari, tadqiqotda qo'llanilgan metodlarning umumiy tavsifi, o'tkazish tartibi, olingan natijalarning tahliliga asoslangan korrelyatsion bog'lanishlar izohi o'z aksini topgan. Shuningdek, Ichki ishlar vazirligi akademik litsey o'quvchilarining shaxsiy-kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish xususiyatlarini aniqlash maqsadida tadqiqot uchun test va so'rovnomalar bo'yicha tadqiqot obyektidan olingan natijalar tahlili keltirilgan.

Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Andijon akademik litsey, Qashqadaryo akademik litsey, Toshkent akademik litsey 220 nafar 1- va 2-bosqich o'quvchilari hamda 85 nafar ota-onalar ishtirok etdi.

1-jadval

O'quvchilarning bosqichlar va jinslar bo'yicha ko'rsatkichlari

Bosqich	N	%
2-bosqich	90	40,9%
1-bosqich	130	59,1%
Qiz bolalar	125	56,8%
O'g'il bolalar	95	43,2%
Jami	220	100,0%

Biz dastlab, respondentlarimizni eksperimental va nazorat guruhlariga ajratib olish maqsadida o'quvchilarning shaxsiy-kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish

darajasini aniqlashga qaratilgan Y.P.Ilin tomonidan ishlab chiqilgan va biz tomonimizdan modifikatsiyalangan “O‘quvchilarining shaxsiy-kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish ustanovkalar” so‘rovnomasini o‘tkazib oldik. Ushbu metodikalar bo‘yicha olingan natijalar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilindi.

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turganidek, 1-bosqich o‘quvchilarida o‘quvchilarning shaxsiy-kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish ustanovkalar 14,6% ni, o‘quvchilarning shaxsiy-kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish ustanovkalar 85,4% ni tashkil etdi. Olingan natijalardan respondentlarimizda o‘quvchilarining shaxsiy-kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish ustanovkalarga nisbatan o‘quvchilarining shaxsiy-kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish ustanovkalarning ustunligi ko‘rinib turibdi. Bu esa ularning xulq-atvorida saxiylik, o‘zgalarga beg‘araz yordam berish motivatsiyasining yuqoriligini anglatadi. O‘quvchilarining shaxsiy-kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish motivlarining ustunligi 2-bosqich o‘quvchilarda 1-bosqich o‘quvchilarga nisbatan yuqoriligini ko‘rsatib, bu ularning “Kelajakda o‘z kasbiy qadriyatlarinigizni qanday tasavvur qilasiz” darajasi bilan bog‘liq bo‘lib, bu shaxsdagi “Shaxsiy sifatlar” darajasining oshishi bilan ifodalanadi, bundan tashqari inson ulg‘aygan sari unda o‘z manfaatlarini va ehtiyojlarini ko‘proq o‘ylash shaxs xarakteriga aylanib boradi. Bundan tashqari, 2-bosqich o‘quvchilarining shaxsiy-kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning yuqori reprezentatsiyalanishi inqiroz holatlari bilan bog‘liq.

N.B.Atabayevaning olib borgan tadqiqot ishida o‘quvchilarining shaxsiy-kasbiy tayyorgarligini rivojlanganlik darajasi o‘rganilgan bo‘lib, unga ko‘ra yosh inqirozlariga bog‘liq ravishda o‘quvchilarining shaxsiy-kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish ustanovkalar yuqori bo‘lgan o‘smirlarda ko‘proq do‘stlari bilan shaxslararo munosabatlarda altruizm, ya‘ni ularga yordam berishga, guruhning jonkuyari bo‘lishga intilishlari aniqlangan. 1-bosqich o‘quvchilarda 14,6% foizida, 2-bosqich o‘quvchilarda esa 22,2% o‘quvchilarining shaxsiy-kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish ustanovkalar ustunligi aniqlandi. O‘quvchilarning shaxsiy-kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish ustanovkalar yuqori bo‘lgan respondentlar bizning tadqiqotimizning eksperimental guruhini tashkil etdi. O‘quvchilarning shaxsiy-kasbiy tayyorgarligini rivojlanishini namoyon bo‘lishi destruktiv xulq-atvor bo‘lib, shaxsni o‘z ehtiyojlarini boshqalarnikidan yuqori qo‘yish, o‘z maqsadlariga erishishda o‘zgalar xohishlarini e‘tiborga olmaslik kabi holatlar bilan izohlanadi. Tadqiqotchilarning fikricha, o‘quvchilarining shaxsiy-kasbiy tayyorgarligini rivojlanishning yuksak darajada taraqqiy etishi oiladagi noto‘g‘ri tarbiya modeli bo‘lib, ko‘pincha oiladagi kattalarning kichik yoshdagi oila a‘zolarini istaklari va manfaatlariga to‘la befarq bo‘lgan holda paydo bo‘ladi.

Akademik litsey o‘quvchilarining shaxsiy-kasbiy tayyorgarligini rivojlanish reprezentatsiyasining yoshga oid dinamik xususiyati 1-bosqich o‘smir yoshdagi respondentlarga qaraganda 2-bosqich o‘smirlar xulq-atvorda shaxsning “Kelajakda o‘z kasbiy qadriyatlarinigizni qanday tasavvur qilasiz” xohishlarining maqsadi va motivatsiyasining asosini tashkil etgani hamda shaxslararo munosabatlardagi mavqeyini tasdiqlash dominantligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotda o‘quvchilarining shaxsiy-kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish namoyon bo‘lishidagi jins farqlarining ahamiyatliligi Mann-Uitni mezonni yordamida o‘rganildi, olingan natijalar quyidagi jadvalda umumlashtirildi.

**O‘quvchilarining shaxsiy-kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish xususiyatlari
(Mann-Uitni mezonida)**

Shkalalar	Jinsi	N=220	O‘rtacha rang	U mezon	Ishonch darajasi
O‘quvchilarining shaxsiy tayyorgarligini rivojlantirish	Qiz bolalar	125	108,09	-,655	,512
	O‘g‘il bolalar	95	113,67		
O‘quvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish	Qiz bolalar	125	118,04	-2,047	,041*
	O‘g‘il bolalar	95	100,57		

Izoh: * $p \leq 0,05$

Olingan natijalarga ko‘ra, qiz bolalarda o‘quvchilarining shaxsiy-kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish namoyon bo‘lishida ishonch darajasidagi jins farqi aniqlandi ($U=-2,047$; $p \leq 0,05$), al’truizm namoyon bo‘lishida esa ahamiyatli farqlar aniqlanmadi. Ushbu natijalarni bu yosh davrida mustaqil, tanqidiy fikrning shakllanganligi hamda qizlarda o‘g‘il bolalarga qaraganda fiziologik jihatdan yetilish ertaroq kuzatilishi hisobiga qizlar ko‘proq egoist deb baholash mumkin. Bundan tashqari, qiz bolalarda muloqot qilish ehtiyojining yuqoriligi “Sintonik muloqot” sifatida ekstroversiya yoki introversiya sifatilari negizida integratsiyalashgan.

“Sintonik” nomi “sintoniya” so‘zidan olingan bo‘lib, bu shaxsni o‘zi va boshqalar bilan “uyg‘un bo‘ling” degan ma‘noni anglatadi. Muloqotning sintonik modeli neyrolingvistik dasturlash (NLP) doirasida ishlab chiqilgan. Sintonik model aloqaning asosiy ko‘nikmalarini (istalgan maqsadlarni aniqlash, sezgirlik, moslashuvchanlik, muvofiqlik, moslashish,) ta’kidlaydi va uni o‘zlashtirish jarayonini qismlarga yoki bosqichlarga ajratadi. Shaxs boshqalar bilan samarali va muvaffaqiyatli muloqot qilishni istasa, uni ushbu model asosida maxsus amaliy mashqlar yordamida ushbu bosqichlarning texnikasini o‘zlashtirish orqali erishiladi.

Muloqotning sintonik modeli aloqani idrok va tafakkur jarayonlari (idrok + fikrlash = muloqot) o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sir natijasi sifatida ko‘radi. Muloqot jarayoni idrok etishdan boshlanadi, uning yordami bilan inson dunyo va odamlar bilan aloqa o‘rnatadi.

Biz o‘quvchilarining shaxsiy-kasbiy tayyorgarligini shakllanishiga ta’sir etuvchi obyektiv omillar qatoriga ota-onaning farzandga munosabatini ham o‘rganishni vazifa sifatida belgilagan edik. Ushbu vazifani amalga oshirish uchun “Ota-ona munosabatlari” so‘rovnomasidan foydalandik.

O‘quvchilarning shaxsiy-kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishida manfiy bog‘lanish aniqlandi ($r=-0,332$; $p < 0,01$). Shaxs qanchalik ko‘p vijdonli bo‘lsa, unda egoizm shunchalik kam bo‘lar ekan. Vijdonlilik axloqiy kategoriya bo‘lib, insonning oliy hislari bilan bog‘liq. Psixoanaliz namoyondasi Z.Freyd “superego”ni ikki tizimga ajratadi: vijdon va egoideal. Vijdon o‘zida bolaning o‘zini tanqidiy baholashi, ahloqiy taqiqlarning mavjudligi va aybdorlik hissi paydo bo‘lishini qamrab oladi. Superegoning rag‘batlantiruvchi sohasi – ego-ideal ota-onaning farzandiga nisbatan maqtovi va uni yuqori mezonlarni qo‘yishiga olib boradi.

O‘quvchilarning shaxsiy-kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishga oid xususiyatlari

	Egoizm	Ekstraversiya	Neyrotizm	Yolg‘on (Ayzenk bo‘yicha)	Vijdonlilik	Da‘vogarlik darajasi	O‘z-o‘zini baholash	Qabul qilish	Hamkorlik	Simbioz	Avtoritar	Kichik omadsiz	Altruizm
Shaxsiy sifatlar	1												
Kasbiy sifatlar	-,141*	1											
Mehribon	,127	,132	1										
Rost-go‘ylik (Ayzenk bo‘yicha)	,160*	-,131	-,347**	1									
Vijdonlilik	-,332(**)	,182**	,124	,065	1								
Da‘vogarlik darajasi	-,014	,099	,045	,098	,122	1							
O‘z-o‘zini baholash	-,228(*)	,186**	-,019	,063	,137*	,168*	1						
Qabul qilish	,131	,074	,269**	-,069	-,045	-,142*	,057	1					
Hamkorlik	-,134*	-,042	,003	-,014	-,042	,041	-,050	-,276**	1				
Simbioz	-,192**	-,013	-,072	,001	-,019	-,023	-,159*	-,175**	,378**	1			
Avtoritar	-,108	-,128	-,126	,043	-,090	,106	-,198**	-,414**	,436**	,383**	1		
Kichik omadsiz	,160*	,070	,102	,136(*)	-,127	-,104	,071	,678**	-,369**	-,102	-,244**	1	
Altruizm	-,268**	,238**	,155*	-,205**	,339**	,058	,265**	,041	,108	,109	,019	-,090	1

p < 0.05 ; ** - p < 0.01 *

O‘quvchilarning shaxsiy-kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishida manfiy bog‘lanish aniqlandi ($r = -0,141$; $p \leq 0,05$). Shaxsda egoizm qanchalik yuqori bo‘lsa, ekstrovertlik shunchalik kam bo‘ladi, ya‘ni introvert insonlar ko‘proq shaxsiy fazilatlarini bo‘lishadi. Bizga ma‘lumki, introvertlarning “Men”i ichkariga o‘zlariga qaratilgan bo‘ladi. Shuning uchun ular ko‘proq o‘zlarini o‘ylaydilar. O‘quvchilarning shaxsiy-kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishiga va o‘z-o‘zini baholash orasida manfiy bog‘lanish aniqlandi ($p = -0,228$; $p < 0,05$). Shaxsda egoizm qanchalik yuqori bo‘lsa, u o‘zini shunchalik past baholaydi.

Tadqiqotchilarning fikricha, introvert o‘smirlarning bolalik davridan boshlab shaxs xususiyati sifatida shakllanadi. Ota-ona bolaning xarakteridagi, uyatchanlik, yopiqlik, o‘zlarining xatti-harakatlari haqida uzoq mulohaza yuritish tendentsiyasini bolaning xarakterdagi kamchiliklar deb bilishadi. Buning natijasida, bolada o‘zini past baholash, o‘ziga ishonchsizlik va “men” ning salbiy imidji shakllanadi. Bu esa ularning hayoti davomida shaxslararo munosabatlarda muammoli vaziyatni yuzaga keltirishga olib keladi.

O‘zini past baholash, odam o‘zini boshqalardan ustun emasligini tan olish, boshqalarning manfaatlarini uchun o‘z manfaatlarini e‘tiborsiz qoldirishi, o‘zini har tomonlama, sababsiz qurbon qilishidir.

O‘quvchilar o‘z-o‘zini baholash odamlar bilan o‘zaro shaxslararo munosabatlar jarayonida o‘zgaradi va shaxsning boshqalar uchun qanchalik muhimligiga bog‘liq bo‘ladi. Kichik muvaffaqiyatlar, maqtov, boshqa odamlarning e‘tibori bolaning o‘zini-o‘zi hurmat qilish va qadrlash tuyg‘usini rivojlanishini belgilaydi. Tadqiqotchilarning

fikriga ko'ra, bolaning o'zini-o'zi baholashi ota-onaning o'z qadr-qimmatini baholashini aks ettiradi va u hayotda bola tomonidan o'zlashtiriladi. Zamonaviy tadqiqotchilar bolaning o'zini-o'zi baholashini shakllantirishning uchta asosiy manbasini ajratib ko'rsatishadi:

- 1) ota-onalarning qo'llab-quvvatlashi
- 2) ota-onalarning induksiyasi
- 3) ota-onaning majburlashi.

Ota-onalar o'smiringa o'z roziligini bildirsa, uni qo'llab-quvvatlasa va uning faol, qobiliyatli va hurmatga loyiq ekanligini tasdiqlasa, o'smiring o'zi haqidagi fikri ijobiy tomonga o'zgaradi.

Bizga ma'lumki, maydondan mustaqil shaxslarga yuqori mustaqillik, "Men" obrazining barqarorligi, boshqalarga juda kam qiziqish, tanqidiylik, kompetentlik xosdir. Maydondan mustaqil individlar turli xil idrok illyuziyalariga kamroq beriladilar. Maydonga tobe shaxslar bilan taqqoslaganda, maydondan mustaqil sinaluvchilar aniq obyektни boshqalaridan ajratib, alohida idrok qiladilar. Bu esa o'quvchilarning o'z fikrlarini bayon qilishda, ma'lumotlarni tahlil qilish, qayta ishlashda shaxsiy "men"ni dahlsizligi, o'z fikrlari bayon qilishdagi rang-baranglik, ma'lumotlarni o'zlashtirishdagi moslashuvchanlikning yuqoriligi fikrlash doirasidagi mustaqillik bilan belgilanadi.

O'smirda o'z xatti-harakatlarini bashorat qilish va kelajakdagi oqibatlarini hisobga olgan holda qaror qabul qilish qobiliyati rivojlanadi.

Ota-onaning majburlashi ota-onaning hokimiyati bo'lib, bevosita nazorati, jismoniy kuchi yoki ijtimoiy mavqeidan foydalanishga qaratilgan. Tarbiyaviy e'tibor jazo va nazoratga asoslangan bo'lib, bu yesa o'z-o'zini baholashning pasayishiga olib keladi. O'zini past baholash o'smiringni o'z kamchiliklariga e'tibor qaratishga undaydi biroq o'zining ijobiy tomonlarini sezmaslikka olib keladi.

"Paradoksali egoizm" tushunchasi ham mavjud bo'lib, o'zini past baholaydigan odam ko'pincha xudbinlik ayblovlariga juda sezgir munosabatda bo'ladi. Hatto egoizmga gumon qilinmaslik uchun u qurbonlik, altruizm, yordamga kelishga tayyorlik, yaqinlari uchun hamma narsani berishga, ayamaslikka, kimnidir baxtli qilishga tayyorlik obrazini yaratadi. Agar egoizm ayblovi qo'yilgan bo'lsa, bu unga juda og'ir botadi, bunday emasligini ko'rsatish uchun harakatlarini yanada kuchaytiradi, ba'zan depressiyaga tushub qolishi ham mumkin.

Tadqiqotda, turli egoizm ko'rinishlari farqlandi. Anglangan va zararli egoizm mavjud – inson o'z manfaatlarini boshqalarning manfaatlaridan ustun qo'yishi va o'zini yaxshilash uchun boshqa odamlarga zarar yetkazishga tayyor bo'lishi nazarda tutiladi. Sog'lom egoizm mavjud - inson o'z manfaatlarini ham, begonalarini ham hurmat qilsa va ular o'rtasida oqilona muvozanatni topishga harakat qilsa; «tabiiy» egoizm mavjud-masalan, "bolalarning egosentrizmi", bu faqat bola hali hech bo'lmaganda o'z manfaatlaridan boshqa birovning manfaatlarini anglashni o'rganmaganligidan kelib chiqadi; va bilvosita egoizm mavjud, yaxshi yoki go'yo majburiy, bu odamning niyatlari bilan emas, balki noqulay sharoitlar bilan belgilanadi.

O'quvchilar o'zini o'zi baholash bo'yicha quyidagi tendentsiyalarni aniqladi: o'zini yuqori baholaydigan bolalarning ota-onalari ham o'zlarini yuqori baholaganlar, o'zini past baholagan bolalarning ota-onalari ham o'zlarini juda past baholaganlar. O'zini yuqori baholaydigan o'g'il bolalarning ota-onalari o'z farzandlarini

tushunganlar va ularni qo'llab-quvvatlab ularga ijobiy munosabatda bo'lishgan. Bu ota-onalar o'z farzandlari uchun o'z xatti-harakatlariga aniq, oqilona talablar va moslashuvchan cheklovlar qo'yadilar. Ota-onalarning o'zini past baholagan o'g'il bolalarga munosabatlarda befarqlik va dushmanlik o'rtasida o'zgarib turardi va xatti-harakatlar normalari bir-biriga zid edi.

Ko'ryapsizmi, o'zini past baholaydigan odamning hayoti o'zini to'liqligini isbotlash g'oyasiga bo'ysunadi, shuning uchun u beixtiyor birinchi navbatda o'zi bilan muloqot qilish, o'zi uchun kerakli ko'rinishni yaratish bilan shug'ullanadi, shuning uchun boshqa odamlar, u ularni qanchalik yuqori baholamasin, o'zi bilan taqqoslaganda, o'zlarini xuddi shunday his qilishadi.

Oila bolani shaxs sifatida shakllanishida muhim rol tutadi va bolani o'zini anglashi, o'z-o'zini adekvat baholashi ota-ona va atrofdagilarning munosabati orqali shakllanib boradi. Agar oilaviy tarbiya usuli obyektiv ravishda bolaning o'z-o'zini yuqori baholashga qaratilgan bo'lsa, unda o'zining ehtiyojlari va qiziqishlari asosida unda barqaror qadriyatlar shakllanishi mumkin.

O'quvchilarining shaxsiy-kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishiga va hamkorlik orasida manfiy bog'lanish aniqlandi ($r=-0,134$; $p<0,05$). Ota-ona farzandi bilan qanchalik ko'p hamkorlikda faoliyat yuritsa, egoizm shunchalik kam bo'lar ekan. "Kooperatsiya" – ota-ona-bola munosabatlari tizimidagi o'zaro hamkorlikni anglatadi. Bunda ota-ona o'z farzandining hayoti bilan qiziqadi va doim uni qo'llab-quvvatlaydi. Tadqiqotchilarning fikricha, oilada ota-onalarning hamkorlikka asoslangan munosabatlari o'smirlar o'rtasidagi ishonchli munosabatlarni saqlashga, o'quv faoliyatining muvaffaqiyati va ularning axloqiy rivojlanishiga yordam beradi. O'smirlar ota-ona mehrini ota-onalarning o'z hayotlarida ko'rsatadigan qiziqishlari va yaqinlarining yordam berishga tayyorligi asosida baholaydilar. O'z navbatida, ota-onalarning befarqligi yoki o'smirlarga e'tibor bermasligi ularda g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga hamda o'quv faoliyatining pasayishiga olib keladi.

Y.II'in tomonidan olib borgan tadqiqotlarida bolada egoizm namoyon bo'lishida ijtimoiy aloqalarning ta'sirini tahlil qiladi, ya'ni uning tadqiqot natijalarida egoizm ko'rsatkichlarining past bo'lishida ijtimoiy aloqalar erkinligi bo'lsa, yuqori darajadagi egoizmga ijtimoiy hayotini kuchli nazoratga olishining natijasidir.

Demak, ota-ona farzandining o'qishi, qiziqishlari, do'stlari bilan qiziqib hamkorlikda faoliyat yuritsa shaxsda shunchalik egoizm kam shakllanar ekan.

Egoizm va simbioz orasida manfiy bog'lanish aniqlandi ($r=-0,192$; $p<0,01$). Ota-ona farzandi bilan qanchalik ko'p simbiotik munosabatda bo'lsa, egoizm shunchalik kam bo'lar ekan. "Simbioz" – mazkur shkalaga tegishli savollar orqali ota-onaning o'z farzandi bilan bir tanu, bir jon bo'la olishi nazarda tutiladi. Ota-onaning farzandiga doimo g'amxo'rlik qilishi, u haqida doimo qayg'urishi, farzandda egoistik xulq-atvorning rivojlanmasligiga olib kelar ekan.

Ota-ona va bolaning simbioz yo'nalishidagi munosabat tizimi birinchi marta transakt tahlil nazariyasida ko'rib chiqilgan. Bunday hodisaning mavjudligi E.Bernning fikriga ko'ra, bolaning ruhiy tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari va "ota-ona – bola" birgalikdagi aloqasining tashkil etilishi bilan bog'liq. Rivojlanishning har bir bosqichida bola o'zining aqliy tuzilishi doirasida o'z resurslariga tobora ko'proq kirish huquqiga ega bo'ladi, ya'ni avtonomiya varianti paydo bo'ladi. Ota-ona bolani qo'llab-quvvatlash bilan birga, uning mustaqilligini rivojlantirishga hissa qo'shadi.

Shunday qilib, ota-ona va bola o'rtasida har ikki tomon o'z xohishiga ko'ra simbioz aloqaga kirishi yoki uzishi mumkin.

Egoizm va "kichik omadsiz" orasida musbat bog'lanish aniqlandi ($r=0,160$; $p<0,05$). Ota-ona farzandi bilan qanchalik kichik omadsiz munosabatida bo'lsa, egoizm shunchalik ko'p bo'lar ekan. "Kichik omadsiz" – bunda ota-onaning o'z farzandini muvaffaqiyatsizligini qanday qabul qilinishi nazarda tutiladi, ya'ni ota-ona o'z farzandini boricha qabul qiladimi yoki uni doim tanqid qilib qabul qiladimi, shu holat bo'yicha ota-onaning bolaga emotsional munosabati aniqlanadi.

Infantilizm yoki "kichik omadsiz"ning shakllanishiga, birinchi navbatda, bola o'sadigan muhit ta'sir qiladi. Ota-onalar o'z farzandlarini himoya qilishga va ularni o'sib-ulg'ayish uchun zarur bo'lgan qiyinchiliklardan "qalqon" bo'lishga intilishlari, haddan tashqari himoyalaniş aynan ko'pincha infantilizmga sabab bo'lishi mumkin.

Egoizm va altruizm orasida manfiy bog'lanish aniqlandi ($r=-0,268$; $p<0,01$). Shaxsda qanchalik egoizm kuchli bo'lsa, unda altruizm shunchalik kam bo'ladi.

Shaxsda egoizm va ekstroversiya, vijdonlilik, o'z-o'zini baholash, hamkorlik, simbioz, altruizm kabi shaxs xususiyatlari orasida manfiy bog'lanishlar aniqlandi. Oilada ota-onalarning hamkorlikka asoslangan munosabatlari o'smirlar o'rtasidagi ishonchli munosabatlarni saqlashga, o'quv faoliyatining muvaffaqiyati va ularning axloqiy rivojlanishiga yordam beradi. O'smirlar ota-ona mehrini ota-onalarning o'z hayotlarida ko'rsatadigan qiziqishlari va yaqinlarining yordam berishga tayyorligi asosida baholaydilar.

O'quvchilarining shaxsiy-kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishga doir shkalasi orasida esa musbat bog'lanishlar aniqlandi. Tadqiqotchilar yolg'on gapirish o'smirning aqliy rivojlanishining ajralmas qismi yekanligini ta'kidlaydilar. Yolg'on bola o'zining "men" chegaralarini belgilaydigan va o'z avtonomiyasini o'rnatadigan muhim mexanizmga aylanadi. "Kichik omadsiz" – bunda ota-onaning o'z farzandini muvaffaqiyatsizligini qanday qabul qilinishi nazarda tutiladi, ya'ni ota-ona o'z farzandini boricha qabul qiladimi yoki uni doim tanqid qilib qabul qiladimi, shu holat bo'yicha ota-onaning bolaga emotsional munosabati aniqlanadi.

Dissertatsiyaning "**Ichki ishlar vazirligi akademik litsey o'quvchilarining shaxsiy-kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning psixologik jihatlarini**" deb nomlangan uchinchi bobi akademik litsey o'quvchilarining shaxsiy-kasbiy tayyorgarligini korreksiyalashning konseptual asoslari hamda akademik litsey o'quvchilarining shaxsiy-kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan psixotexnologik model va uning samaradorligi keltirilgan.

